

**FRANS LIZST HAYOTI VA IJODI, FORTEPIANO VA SIMFONIK
MUSIQA JANIRLARGA QO'SHGAN HISSASI****Abdusattorova Zuhaxon***Farg'ona davlat universiteti Pedagogika-psixologiya va
san'atshunoslik fakulteti "Musiqqa ta'lim" yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mashhur kompozitor, pioninachi va drijyor Frans Listning hayoti va ijodiy faoliyati tahlil qilinadi. Kompozitorning fortepiano va simfonik musiqa janriga qo'shgan hissasi, fortepiano musiqasi va simfonik poema janrini rivojlantirishdagi o'rni, vengr xalq musiqasi xarakterini ochib beruvchi asarlari, hayoti davomida yozgan mashhur asarlari tarixi to'g'risida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Kompozitor, drijyor, pioninachi, Vengr musiqasi, simfoniya, janr, simfonik poema*

Аннотация: *Данная статья посвящена знаменитому композитору, пианисту и дирижеру Франсу. Будет проанализирована жизнь и творчество Листа. Будет рассмотрен вклад композитора в фортепианную и симфоническую музыку, его роль и развитии фортепианной музыки и жанра симфонической поэмы, его произведения, раскрывающие характер венгерской народной музыки, а также история известных произведений, написанных им при жизни.*

Ключевые слова: *композитор, дирижер, пианист, венгерская музыка, симфония, жанр, симфоническая поэма*

Buyuk Vengr kompozitori, drijyor, paninachi, Vengrya musiqa san'ati rivojiga katta hissa qo'shgan jamoat arbobi, Frans Liszt 1811-yil 22-oktyabrda Vengrya shahrining Doboryan qishlog'ida dunyoga kelgan. Bolaligida Vengr dehqonlarining quvnoq qo'shiqlariga maftun bo'lib, musiqaga qiziqqa boshlagan. U doim o'zini Vengr ekanligini ta'kidlagan va o'z xalqi, o'z vatani bilan faxirlangan. Vengr musiqasi madaniyatini qo'llab-quvvatlagan hamda o'z xalqi musiqasi rivojlanishiga harakat qilgan. Frans Vengryani erta tark etgan bo'lsada, kompozitor umrining ko'p yillarini Fransiya va Germaniyada o'tkazgan. U "Venger uslubidagi qahramonlik marshi", "Venger" kantatasi, bir nechta "Venger milliy kuylari" daftarlari, vatan obrazlari bilan bog'liq simfonik poema, vengr xalq mavzulari erkin ishlatilgan vengr rapsodiyalari, vengr mashhur arboblarning musiqiy xarakteristikasidan iborat "Vengr portretlari", fortepiano uchun qo'shiqlar, Vengr mavzularini puflab chalinadigan asboblardan uchun maxsus yozilgan asarlari ham o'z o'rniga ega.

Otasi Graf havaskor musiqachilardan bo'lgan va og'lining musiqaga bo'lgan qiziqishini uyg'otgan hamda rag'batlantirib turgan. Otasi yosh Fransga fortepiano chalish sirlarini o'rgatgan. Yosh ijrochi 9 yoshida qo'shni Shoprone shaharchasida

o‘zining birinchi konseritini bergan. Bolalikdan ajoyib ijro mahoratiga ega bo‘lgan Frans Graf mehmonlarini shunchalik hayratlantirganki, bir necha zodagonlar Farnsning musiqiy ta‘lim olishi uchun pul to‘lash istagini ham bildirishgan. Natijada, ijodkor Fransni o‘z bilimini oshirishi hamda musiqiy ta‘lim olishi uchun Venaga yuborishga qaror qilishgan. U yerda yosh ijrochi kompozitsiyani (asarning qismlari va shakl jihatdan tartibli, uyg‘un tuzilishi) A.Salyeridan va fortepiano chalishni Yevropaning yirik pedagog-kompozitori Karl Cherniydan o‘rganadi. List yaratgan musiqa asarlari aniq va tushunarli, mavzusi ta’sirli va ravshanligi bilan o‘z o‘rniga ega. Listning ko‘plab tarnskripsiyalari (asarni boshqa cholg‘u asbobiga moslab qayta ish lash) elga tanilgan va xalqning orasida ko‘zga tashlangan, negaki ular opera va romanslarning aniq sujeti bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. List o‘zining rang-barang to‘plamlari bilan melodika sohasini kengaytirgan holda bir vaqtning o‘zida garmoniya sohasida ham yangiliklar kiritadi. Frans List – “Simfonik poema” janri va “monotematizm” deb ataluvchi musiqiy rivojlanish usullarining yartuvchisi hisoblanadi.⁴¹

1822-yil 1-dekabrda yosh Fransning Venadagi birinchi debyuti bo‘lib o‘tgan. Fransning chiqishidan tanqidchilar hayratda qolishadi va shu kundan e’tiboran List shuhrat qozonadi. U mashhur Noshir A.Diabellidan vals mavzusiga variatsiyalar yozish taklifini oladi. Noshir huddi shu iltimos bilan murojat qilgan Betxoven va Shubertlar qatoriga yosh musiqachi List ham qo‘shilgan. Kompozitor yosh bo‘lishiga qaramay o‘z iqtidori va qobiliyatiga ega bo‘lgan. Shunga qaramay, Frans xorijlik musiqachi sifatida Parij konservatoriyasiga qabul qilinmagan va o‘z bilimini rivojlantirish maqsadida to‘lovli darsga qatnay boshlagan. List musiqa nazariyasi bo‘yicha Italiyan operasi kapelmeystri F.Pauer va konservatoriya professori A. Reyxdan ta‘lim oladi.

Frans Listning dastlabki kompozitorlik tajribalaridan biri 1825-yilda Grand Operada qo‘yilgan “Don Sancho” (“Muhbbat qasri”) operasi bo‘lgan. List yosh kompozitorlar G.Berlioz va F.Shopen bilan tanishadi. Ularning ijodi Listda katta qiziqish uyg‘otadi. List Shopenga bag‘ishlangan ko‘plab nozik va aniq tavsiflardan iborat kitob yozadi. Italiyalik virtuoz skripkachi N.Paganini Listning eng yaxshi ko‘rgan san’atkoriga aylanadi va List o‘sha darajada mashhur pioninachi bo‘lishni hamda ajoyib fortepiano uslubini yaratishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. List hissiyotli va jozibali inson bo‘lgan va o‘z davrida butun Yevropaning ideal musiqachisiga aylangan. O‘z maqsadlari bilan birgalikda orzu qilgan pioninachi darajasiga yetishgan.

1834-yili List Grafinya Mari d’Agu bilan biralikdagi hayotini boshlaydi hamda bir o‘g‘il va ikki qiz farzand dunyoga keladi. Kompozitor ijod qilishdan toxtamagan va hayoti davomidagi sayohatlarida o‘z kompozitorlik asarlarini yozib brogan. 1835-yili List Mari d’Agu bilan 4 yil davomida Shvetsariyadan Italiyagacha katta sayohatni amalga oshirishadi. List o‘zining Shvetsariya haqidagi taassurotlarini “Sayohatchi albomi” nomli fortepiano asarlari toplamida yoritadi. Bu turkum to‘rtta bo‘limdan iborat. Listning har bir asari sayohatlari davomida o‘z o‘rnini egallab borgan. 1837-

⁴¹ Bosh sahifa <https://www.ziyouz.com>. “Chet el musiqa tarixi”. <https://www.google.com/url?>

yilning mart oyida List Mari d'Agu bilan Italiyaga sayohatlarini davom ettirishadi. Uyg'onish davri Italiyan san'ati yodgorliklari ta'siri ostida List keyinchalik "Sayohatning ikkinchi yili" nomli asarlarni yozadi. List ijod qilish bilan birga turli xil konsertlar ham tashkillagan. 1839-1847-yilda Listning Serunum konserti ijro etilgan hamda Avstrya, Belgiya, Anglya, Frasiya, Vengrya, Shotlandiya, Rossiyada bir qancha chiqishlar olib borgan. Ushbu konsertlarda List tomonidan juda ko'p asarlar ijro etiladi u turli opera, uvertyuralari shuningdek "Figaroning uylanishi", "Iblis Robert", "Gugenotlar", "Norma" operalariga parafrazalar va ko'plab shaxsiy asarlarini mohirlik bilan ijro qilgan. 1842-yili aprel oyida Peterburgda, 1843-yili may oyida esa Peterburg va Maskvada chiqish qiladi. 1847-yil List Ukraina, Moldaviya, Turkiya, Kostantinopol davlatlarida konsert bergan, keyinchalik esa Ukrainaga qaytgan va u yerda Yelizavetgrad shahrida pianist-virtuozning sayohatlari davri yakuniga yetgan. 1839-yili Mari d'Agu bilan ajrashgach, List polyak pomeschchiginning qizi Karolina Vitgenshteyn bilan uchrashadi. 1848-yilning boshida List Karolina bilan birgalikda Germaniyaning Veymar shahriga borishadi. List Veymar opera teatri drijjori etib tayinlangan. Opera teatriga 10 yil rahbarlik qilgan va turli bastakorlarining operalarini sahnalashtirgan. Glyukning "Orfey", "Alsesta", "Armida" operalari, Betxovenning "Fidelios", Motsartning "Sehirli nay", Rossinining "Vilgelm Tell" va "Otello", Veberning "Freyshyuts" va "Evrianta", Berliozning "Benvenuto Chellini", "Fantastik simfoniya", "Garold Italiyada", "Romeo va julyetta", "Fauetni qoralash", "Rim karnavali", Shumanning "Genovevu", Vagnerning "Tangeyzer", "Loengrin", "Uchar gollandiyalik" operalarini qo'ygan.

Listning adabiy faoliyati ham o'z o'rniga ega. Listning adabiy faoliyati yangi musiqani bosma so'z bilan targ'ib qilishda namoyon bo'lgan. U Berliozning "Garold Italiyada", Vagnerning "Tangeyzer" "Uchar gollandiyalik", "Loengrin" operalariga bag'ishlangan maqolalari katta tadqiqot bo'lgan. Maqolalarida bastakorlarning ijodi va ularning asarlarini tahlil qilgan. Veymarda Listning ikkita kitobi yozilgan, 1849-yili "Shopen" va 1854-yili "Vengr lolilari musiqasi" haqida yozgan. Veymar davrida List pedagogik faoliyat bilan faol shug'illangan. Ommaviy chiqishlardan voz kechgach, List o'zini yosh musiqachilarni tarbiyalashga bag'ishlagan. List o'quvchilari qatorida yetuk pianinachi va dirijjor Gans Byulov, pioninachi Karl Tauzik, bastakor Petr Kornelius va Loaxim Rafflar ham ta'lim olishgan. List 337 nafar o'quvchilarga ta'lim bergan. Ular orasida rossiyalik Aleksandr Ziloti, Vera Timanova o'quvchilari ham bo'lgan.⁴²

1854-yili List Veymarda "Yangi Veymar uyushmasi"ni tuzdi va 1861-yilda "Umum nemis Musiqa uyushmasi"ga asos soldi. Ularning vazifasi yangi, ilg'or musiqasani san'ati g'oyasini yoyish va buyuk bastakorlar ijodini targ'ib etish bo'ldi. Veymarda List chex musiqasining buyuk klassigi Bedrjih Smetana, Iogannes Brams, vengr skripkachisi Edde Remini, rus bastakori A.N.Serov, A.G.Rubinshteyn va boshqalar bilan uchrashadi.

⁴² A.X.Tirgulova "Chet el musiqasining tarixi" 1-qism .T.2020.

Veymar davrida 12 ta simfonik poema (13 tasidan), 15 ta vengr rapsodiyasi (19 tasidan), fortepiano konsertalining yangi tahriri, “Oliy mahorat etyudlari” va “Paganini kaprislari bo‘yicha etyudlar”, “H-moll Sonata” si yozildi.⁴³

Listning 12 ta simfonik poemasi List musiqasining go‘zal namunasi hisoblanib, unda musiqiy obrazlar va ularning mazmuni proetik hamda ma‘naviy-falsafiy g‘oyalari bilan bog‘langan. List erkin bir qismli shaklda yozilgan yirik dasturiy asarlar bo‘lgan yangi romantik janr – “Simfonik poema” janrining yaratuvchisi hisoblanadi. List “Simfonik poema” janrida gavdalandirgan obrazlari juda kengdir. Viktor Gyotening she‘rlariga yozilgan “Tog‘da eshitganlarim” simfonik poemasida insoniy iztiroblar, tabiatning ulug‘vorligi va insoniy kechinmalar, romantik g‘oyalarni mujassamlashtirgan. Gyotening yuz yillik yubileyiga bag‘ishlab yozilgan “Tasso” simfonik poemasida ham Tassoning hayotligidagi iztiroblari va uning vafotidan songerishgan ulug‘iste‘dodining zafarli tantanasi tasvirlangan. “Orfey” simfonik poemasi List san‘atining ramziga aylangan, unda frakiyalik xonandaning Orfey haqidagi mashhur qadimgi grek afsonasini gavdalandirgan. Listning yana bir simfonik poemasi “Prometey” asari dastlab Garderning “Prometeyning ozod etilishi” drammasi pastanovkasiga uvertyura edi. Unda xudolardan olovni o‘g‘irlab, odamlarga tuhfa etgan Prometeyning Azamat obrazi bilan uyg‘un tarzda ifoda etilgan. List “Mazepa”, “Bayram jangiga” “Qahramon haqida yig‘i-yo‘qlov”, “Vengrya”, “Gamlet”, “Gunnlar janggi” hamda “Ideallar” kabi simfonik poemalar yozgan. Veymar davrida List ikkita dasturiy simfoniylarni ham yozib tugatgan. 1854-yilda Gyote haqida “Faust” simfoniyasini yozadi, u uch qismdan iborat “Faust”, “Gretxen”, “Mefistofel”. 1857-yilda esa Dantening “Ilohiy komediya” si bo‘yicha ikki qismdan iborat simfonik poemasini yozgan “Do‘zax” va “Tozalanish”. Shuningdek, Lenauaning “Faustdan ikkita epizod”, “Tungi namoyish” va “Mefisto – vals” kabi simfoniylarni yozgan.

1861-yilda List Vitgenshteyn bilan nikohini ilojisiz qilib qo‘yayotgan siyosiy va diniy xarakterdagi g‘oyalarni bartaraf etishga umid qilib, Rimga o‘tlanadi. Rim davrida List “Muqaddas Yelizavetta”, “Xristos” oratoriyalari, “Vengr tojlanish messasi”, “Ormonlar shovqini”, “Gnomlar yurishi” kabi mashhur fortepiano etyudlari, “Ispan rapsodiyasi”, Betxoven, Verdi va Vagner asarlariga transkripsiya asarlarini yozgan. List 1869-yili Veymarga qaytadi. Bu davrda u Vena, Parij, Budapeshtga borib turgan va 1875-yili Budapeshtning Milliy musiqa akademiyasi birinchi prezidenti va o‘qituvchisi bo‘lib tayinlangan.

Hayotining so‘ngi yillarida List “Sayohatning uchinchi yili” ni yozgan va unda kompozitorning Rim taassurotlari aks etgan. So‘nggi davrida List ijodi qarama-qarshiliklarda o‘tgan va diniy mushohada unsurlarga ega bo‘lgan musiqiy asarlar, musiqiy impressionizm manbalarini ochib beruvchi asarlar, maishiy raqs janri bilan bog‘liq yorqin asarlarni ham yozgan. Vagner vafotidan so‘ng 1883-yilda List Veymarda Xotira konsertini o‘tkazadi. 1886-yili 75 yoshida List Anglyaga boradi va qirolicha

⁴³ B.R.Yakubov. “Horijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti”. F.2005

Viktoriya tomonidan qadirllovchilar bilan kutib olinadi. List o'zini charchagan va yomon hisada Anglyada Bayretga har yilgi Vengrya festivaliga borar edi. U ana shu shaharda 1886-yil 31-iyulda o'pka shamollashiga chalinib vafot etgan.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, List o'zining butun ijodi davomida o'zining eng qimmatli fikr-o'ylarini, orzu-umidlarini va tuyg'ularini musiqa, fortepianoga bag'ishlagan. Buyuk pioninachi sifatida List o'zining ajoyib ijrosi bilan minglab tinglovchilarni qoyil qoldirgan. Kompozitor va ijrochining o'zligini uyg'un holda, texnikaning turli tuman yo'nalishlarini mohirona ifoda etgan. List musiqasida muhim o'rin egallagan ijodining simfonik poema janri hozirgi kunda ham yashab, rivojlanib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bosh sahifa <https://www.ziyouz.com>. Chet el musiqa tarixi. <https://www.google.com/url?>
2. B.R.Yakubov. "Horijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti". F.2005.
3. A.X.Tirguova "Chet el musiqa tarixi" 1-qism .T.2020.